

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH. XALQARO BAHOLASH STANDARTLARI (PISA, PIRLS , TIMSS VA TALIS) HAQIDA.

Abdusalomov Shahzodbek

Master

National University of the Republic of Uzbekistan

Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi - PISA (ing. Programme for International Student Assessment) turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarining savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur.PISA testlari maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarни tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta‘lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o‘tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo‘nalishiga afzallik berilib, ja’mi testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo‘ladi. 2000-yilda ilk bor o‘qish savodxonligiga urg‘u berilgan.

Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo‘lgan davlatlar ishtirok etadi.

PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo‘lib, u turli mamlakatlardagi ta‘lim tizimlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta‘lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015- yillar oraliq‘ida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda – Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada - Finlyandiya, Estoniya, Shveytsariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o‘rta ta‘lim tizimi yaxshi rivojlangan.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi taraqqiyot) bu 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunishdarajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir.PIRLS-(inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta‘lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarda boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta‘lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta‘limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta‘lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ta‘lim yutuqlarini baholash

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

xalqaro assosasiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan.Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o'tkazilgan.Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi.PIRLS tadqiqotda ishtirok etuvchi turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfga maktab o'quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko'plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to'rtinchi sinfni 10.5 yoshda tugatishadi.Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda- maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va ahamiyatli jihatni PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu mamlakatlarning 5-sinf o'quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtirok etishadi.Shvesiya, Daniya va ko'plab Sharqiy davlatlarda- maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o'quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi.[1]

PISA ta'lim turi bu o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT), Organization for Economic Cooperation and Development(OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yili o'tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. PISA tadqiqotlari har uch yilda o'tkazilishiga sabab shuki PISAning asosiy vazifasi a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zdautilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi.

PISA (programme for International Student Assessment) 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tibbiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholash dasturi hisoblanadi.PISA- o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha Xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi- 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Testda faqat 15 yoshli o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch

yo'nalishda: o'qish, matematika, va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. Birgina 2015-yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA Xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lif sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lif sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini ko'radi hamda ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.PISA-15 yoshli o'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanТИRISH tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi ba 1000 ballik tizimda baholanadi. Dastur ko'magida turli davlatlar ta'lif tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi.[2]Har bir davlatdan ishtirok etuvchi o'quvchilar soni mamlakatdagi jamil5 yoshli bolalarning 2 foizi miqdorida shakllantiriladi. PISA dasturi test sinovlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanТИRISH tashkiloti tomonidan konsorsiumda yetakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi.PISA-o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.PISA Xalqaro dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va hal qila olish kabi ko'nikmalarini ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatda ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari, ular bergen taklif vayechimlarni baholaydi.PISA- xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi.PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki tartib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqazo etmaydi.Ishtirokchi mamlakatlар ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o'quvchilarda tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi, mustahkamlanishi, davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e'tirof etadi. PISA tadqiqoti- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTt (OECD- Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.Tadqiqot ilk bora 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib, har uch yilda bir marotaba o'tkazib boriladi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan.PISA tadqiqoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan:

- 1.Ta'lif sohasidagi eng yirik, keng ko'lamlı Xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;
- 2.Tadqiqotda umumiy o'rta ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etadi;[4]

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

3.Tadqiqotda o'quvchilarning "hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalarini hayotda qo'llay olish layoqati baholanadi;

4.Tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy yo'nalishdagi fanlar va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi;

5.Tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lif tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi; O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi uchun quyidagilar muhim ahamiyatga egadir:

-O'zbekistonda umumta'lif maktablari bitiruvchilarining ta'lif olishni davom ettirishgaqay darajada tayyorgarligini aniqlash;

-Mamlakatdagi umumiyo'rta ta'lifni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;[3]

-O'quvchilarning ta'lif sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lif tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish;

Xulosa:

Tadqiqot o'tkazish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Barcha o'quvchilar uchun bir xil test savollari berilmaydi.PISA tadqiqotlarida qo'llaniladigan test savollari odatda mamlakat ta'lif tizimi samaradorligini baholash uchun ishlab chiqiladi. Tadqiqot savollari o'quvchilarni individual baholash uchun mo'ljallanmagan. Shu sababli, har bir o'quvchiga bir xil namunadagi savollar to'plami tarqatilishi talab etilmaydi. Shunday qilib, PISA test materiallari to'plami testda qatnashgan o'quvchilar orasida tasodify tanlov tarzida taqsimlanadi.PISA- 2015 tadqiqoti kompyuter tizimidan foydalangan holda o'tkaziladi.Buning o'ziga xos ahamiyati nimada? Kompyuter va kompyuter texnologiyalari kundalik hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. PISA Xalqaro baholash dasturini kompyuterda o'tkazish ana'nesi ham ijobjiy ma'noda yaxshi yo'lga qo'yilgan. 2015-yil PISA Xalqaro baholash dasturida qatnashish istagini bildirgan ko'plab davlatlarda Ilk marta kompyuter yordamida test jarayonlari o'tkazilgan. Faqat kompyuterda o'tkazishga tayyor bo'limgan ayrim davlatlardagina test sinovlari qog'oz ko'rinishida o'tkazilgan.Mamlakatlarda PISA tadqiqotlarida ishtirok etish uchun maktablar qanday tanlab olinadi?PISA tadqiqotida ishtirok etuvchi maktablarni tanlab olish uchun qat'iy texnik standartlarni qo'llaydi. Maktablarni tanlab olish jarayoni sifati ta'minlanadi erishilgan namunalar va tegishli javob stavkalari belgilangan normalarga rioya qilganligini tasdiqlaydigan qaror qabul qilish jarayoniga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.A.Xaliquov "PIRLS dasturining mazmun-mohiyati"- pedagogika fanlar doktori.[1]

2.Колягин Ю.М. Об интеграции обучения и воспитания в начальной школе. // Начальная школа. - 1998. -Л 3. - С. 18.[2]

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

3.Ziyomhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogic texnologiya. –T/: Abu Ali Ibn Sino, 2001.- B. 24-25[3]

4.Кололжвари И. Сечникова Л. Как организовать интегрированный урок? (о методике интегрирования образования) //Народное образование. - 1996. -№1. - С. 87-89.[4]